



## AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION MOLİYAVIY MENEJMENTNI TASHKIL ETISH MEXANIZMI

*PhD, prof. Shamansurova Zilola Abduvahitovna*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0009-0009-5152-3518*

*[z.shamansurova@tsue.uz](mailto:z.shamansurova@tsue.uz)*

**Annotatsiya.** Hozirda jahon miqyosida moliyaviy menejmentning asosiy funksional elementi hisoblangan moliyaviy rejalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari keng tadqiq etilmoqda. Xususan, global pandemiya sharoitida tashqi bozorlardagi o'zgaruvchan muhitga tez moslashuvchan moliyaviy rejalashtirish tizimi va uning strategik rejalar bilan uyg'unlashtirilgan mukammal modelini shakllantirish yuzasidan maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, moliyaviy menejmentning asosiy funksional elementlaridan biri kompaniyalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini kompleks baholashning keng ko'rsatkichlar arsenalini mujassamlashtiruvchi moliyaviy diagnostikaning tashkiliy arxitekturasini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** innovatsiyalar, innovatsion faoliyat, moliya, korporativ moliya, aksiyadorlik jamiyati, moliyalashtirish, moliyaviy menejment, korporativ boshqaruv, qimmatli qog'oz, kapital, risk, depozit, kompleks baholash.

## МЕХАНИЗМ ОРГАНИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

*PhD, проф. Шамансурова Зилола Абдувахитовна*

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В настоящее время во всем мире широко исследуются вопросы совершенствования системы финансового планирования, которая является основным функциональным элементом финансового менеджмента. В частности, в условиях глобальной пандемии проводятся целевые исследования по формированию системы финансового планирования, способной быстро адаптироваться к меняющейся конъюнктуре на внешних рынках и ее совершенной модели в сочетании со стратегическими планами. Также один из основных функциональных элементов финансового менеджмента ориентирован на совершенствование организационной архитектуры финансовой диагностики, которая воплощает в себе широкий арсенал показателей комплексной оценки финансово-хозяйственной деятельности компаний.

**Ключевые слова:** инновации, инновационная деятельность, финансы, корпоративные финансы, акционерное общество, финансирование, финансовый менеджмент, корпоративное управление, ценные бумаги, капитал, риск, депозит, комплексная оценка.

## THE MECHANISM OF ORGANIZATION OF INNOVATIVE FINANCIAL MANAGEMENT IN JOINT-STOCK COMPANIES

PhD, prof. **Shamansurova Zilola Abduvahitovna**  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** *Currently, the issues of improving the financial planning system, which is the main functional element of financial management, are widely studied all over the world. In particular, in the context of a global pandemic, targeted research is being conducted on the formation of a financial planning system capable of quickly adapting to changing conditions in foreign markets and its perfect model in combination with strategic plans. Also, one of the main functional elements of financial management is focused on improving the organizational architecture of financial diagnostics, which embodies a wide range of indicators for a comprehensive assessment of financial and economic activities of companies.*

**Keywords:** *innovation, innovation activity, finance, corporate finance, joint-stock company, financing, financial management, corporate governance, securities, capital, risk, deposit, comprehensive assessment.*

### **Kirish.**

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab korxonalar moliyasini samarali boshqarishga qaratilgan moliya-soliq siyosati olib borilmoqda. Chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi, korporativ boshqaruv tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi, maqsadli kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda «korxonalarda korporativ moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish foydalanilmayotgan resurslar va moliyaviy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalanish, korxonalar moliyaviy siyosati sohasida shakllanib qolgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri – korxonalar miqyosida moliyaviy menejment samaradorligini oshirish imkonini beradi». SHuning uchun ham har bir mamlakatda shakllantirilgan milliy iqtisodiyot va uning taraqqiyotini o'ziga xos jihatlari moliya tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonlari va mexanizmi, jahon iqtisodiyoti rivojlanish siklining turli bosqichlarida, siyosiy, ijtimoiy va institutsional omillar ta'siri ostida o'zgarib turuvchi makroiqtisodiy vaziyatlar tufayli amaliyotga joriy etilishi bo'yicha turli risklarga duch keladi. Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalari, jumladan, bugungi kunda aksariyat davlatlar iqtisodiyotida kutilayotgan retsessiya holatlari O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning risklilik darajasiga ta'sir etmay qolmaydi. Biroq, ta'kidlash lozimki, inqiroz nafaqat bankrotlik holatlari yoki ko'plab moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi, balki iqtisodiy o'sishni qayta tiklash va biznesni keng ko'lamli modernizatsiya qilish zaruriyatini anglagan holda yangicha yondashuv va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlar korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirish borasida ko'plab ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lgan bo'lsada, biroq xalqaro amaliyotda kompaniyalar istiqbolini prognoz qilishda keng foydalaniladigan korporativ baholash instrumentlarini joriy etishning amaldagi holati bo'yicha salbiy jihatlarni bartaraf etish kabi dolzarb masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Moliyaviy menejment aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy holatini hamda moliyaviy resurslar harakatini boshqaradi va moliyaviy resurslar xavfsizligini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda moliyaviy menejment korxonalarda inqirozga qapshi boshqaruvni ham amalga oshiradi. Inqirozga qarshi boshqaruv moliyaviy menejmentning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida inqirozlar yuz berishi mumkin

bo'lgan holatlarni moliyaviy menejment o'z funksiyalari bilan bartaraf etadi va korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqan holda quyida moliyaviy menejment mohiyati, korxonalar moliyasi va unda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentini samarali tashkil etishning usul va vositalarini takomillashtirish yuzasidan bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar o'z fikrlarini hamda ilmiy qarashlarini bayon qilib o'tishgan.

Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlarda menejmentning maxsus sohasi sifatida o'ziga xos boshqaruv tamoyillari va prinsiplariga asoslangan moliyaviy menejment XIX-XX asrlarda maxsus bilimlar sohasi sifatida shakllandi. Bu borada amerikalik mutaxassis Brikxem moliyaviy menejmentni maxsus fan sifatida XIX asrning 90- yillarida shakllanganligi to'g'risida fikr bildirib o'tgan.

Professor Blank ta'kidlaydiki, moliyaviy menejment sohasida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolarning doimiy ravishda kengayib borganligi va natijada tadqiqotning metodologik apparatini tobora chuqurlashib borishi natijasida uni bir necha bosqichlarda rivojlanib borganligini ta'kidlaydi.

Lyalin va Vorobevlar ta'kidlashlaricha, "moliyaviy menejment — korxonaga o'z va qarzi mablag'laridan samaraliroq foydalanishi hamda eng kam tavakkalchilik sharoitida yuqori foyda olishni ta'minlashning uslublari, yo'nalishlari haqidagi fandir". Albatta, bunday yondoshuvda izlanish predmeti nisbatan keng olinmokda. Biroq, har ikkala qarashlarda ham tizimlilik etishmaydi va bu holatda moliyaviy menejmentning u yoki bu maxsus fanlar (moliyaviy tahlil, moliyaviy hisob va hisobot, moliyaviy matematika va h.k.) o'rganish ob'ekti bilan chalkashtirilishiga yo'l qo'yilayotir.

Xususan, chet ellik iqtisodchi olim Porter (2010) iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sish uchun real sharoitlarni ta'minlash umuman davlatda ham, mintaqalarda ham investitsiya faoliyatini faollashtirishni talab etishni ta'kidlaydi.

Madsenning (2020) fikriga ko'ra, hukumatning pul-kredit va soliq-byudjet siyosatini ma'lum turdagi aktivlarni xususiy sektorga taklifi sifatida qarash lozim. Xususiy sektorning ushbu taklifga munosabatini esa, aktivlarga bo'lgan talabning tarkibini, ularning daromadlilikiga ko'ra, o'zgarishi sifatida qarash zarur.

Druker (2019) va boshqa olimlar kabi iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar moliya sektorining rivojlanish darajasi bilan real sektorning rivojlanish darajasi o'rtasida ijobiy korrelyasion bog'liqlikning mavjudligini ko'rsatdi. Ya'ni, mamlakatda moliya sektorining rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, real sektor korxonalarini faoliyatining rivojlanish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Ba'zi iqtisodchilar moliyaviy menejment tushunchasini maqsadli boshqaruv tizimi sifatida talqin etmokdalar. Jumladan, Saidov (2008) fikricha, "moliyaviy menejment — moliyaviy resurslar harakati va bu jarayonda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida mavjud keluvchi moliyaviy munosabatlarni boshqarish maqsadini ishlab chiqish va ularga moliya dastaklari yordamida ta'sir etish jarayonini xususiyatlaydi".

Menejment va bozor akademiyasi muxbir a'zosi, mazkur akademiya qoshidagi moliyaviy menejment instituti direktori Stoyanova (2021) tahriri ostida chiqqan "Moliyaviy menejment: nazariya va amaliyot" darsligida ta'kidlanishicha, "moliyaviy menejment korxonaga o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun foydalanadigan usullarning zaruriy majmuasidir". Bu erda asosiy narsa — bosh maqsadga zid kelmaydigan, unga erishishni ta'minlaydigan usullarni tanlay bilish va qo'llay olishdadir. Moliyaviy menejment mohiyatini bunday tushunish yuqoridagi qarashlardagi kabi aniq izlanish predmetini ifodalasada, unda moliyaviy menejment jarayonining tashkiliy-iqtisodiy asoslari etarlicha yoritila olinmagan.

Bir guruh taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari ko'rsatadiki, taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik biznes sub'ektlari aylanma mablag'larining 60 foizdan ortiq qismi

taqsimlanmagan foyda hisobidan moliyalashtirilayotganligi sababli, ularning investitsion harajatlarni moliyalashtirish imkoniyati juda cheklangan .

### Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraktsiyalash, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlantirish, dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy menejment uslubiyatini tashkil etish va takomillashtirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, korxonalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish, ularning infratuzilma va boshqa jihatlarini qamrab oluvchi mustahkam huquqiy asos yaratildi. Biroq barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini tashkil etish jarayonlarini ijobiy baholash qiyin. Moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish orqali korxonalar moliyaviy resurslarini boshqarish bo'yicha optimal qarorlar qabul qilish, moliyaviy ta'minotini mustahkamlashda zamonaviy instrumentlardan keng foydalanish, investitsion qarorlar qabul qilish, moliyaviy risklarni xalqaro talablar darajasida to'g'ri baholash orqali moliyaviy menejment strategiyalarini joriy etish kabi dolzarb vazifalar ijrosini ta'minlash mumkin .

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining turli jabhalari uning moliyaviy natijalariga tegishli ta'sir qiladi. Shunga ko'ra korxonalar u yoki bu faoliyat turidan foyda, boshqasidan zarar ko'rishini mumkin. Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, korxonada moliyaviy menejmentning tub maqsadi korxonalar kapitali bozor qiymatining o'sib borishini ta'minlashdan iborat. Shunday ekan, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish o'zaro bog'liq ikki muammoni hal etishni talab qiladi: birinchidan, korxonalar faoliyati turli sohalari va bo'limlarining operativ – moliyaviy mustaqilligi hamda ma'suliyatini oshirish; ikkinchidan, har qanday o'zgaruvchan sharoit va omillar ta'siri natijasida ham umumiy tarzda korxonalar moliyaviy natijalarining yaxshilanishiga erishish.

Moliyaviy menejmentning ilg'or, hozirgi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan konsepsiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin (1-jadval).

### 1-jadval

#### Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment konsepsiyalari, ularning maqsadlari va tavsifi

T/r	Konsepsiyaning nomi	Moliyani boshqarishning asosiy maqsadi
1.	<b>Moliyaviy aktivlar daromadligini baholash modelini shakllanishi</b>	Investitsion portfel samaradorligini maksimallashtirish (bunga daromadni imkon qadar ko'paytirish va riskni kamaytirish orqali erishiladi)
2.	<b>Kapital optimal tarkibi konsepsiyasi</b>	Moliyalashtirish manbalari samaradorliklari va ularidan foydalanish yo'nalishlarining o'zaro nisbatini mukammallashtirish
	<b>Moliyaviy holat tahlili konsepsiyasi</b>	Xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy holatini xususiyatlovchi asosiy nisbatlarni tegishli darajada ushlab turish
4.	<b>Xarajatlarni mukammal boshqarish konsepsiyasi</b>	Xarajatlarni asoslanganligi va samaradorligini oshirish

*Manba:* Kovalev (2016)

1-jadvalda keltirilgan konsepsiyalarning har qaysisi korxonada moliyasini boshqarishning alohida yo'nalishlarini xususiyatlaydi, shuning uchun ham korxonada bir vaqtning o'zida moliyaviy faoliyatning har qaysi yo'nalishiga oid bir qancha konsepsiyalar qo'yilishi lozim.

Aksiyadorlik jamiyatlarida har qaysi bo'lim va sohalar uyg'unligini ta'minlovchi moliyaviy menejment asoslarini takomillashtirishning muhim vositalaridan biri korxonada moliyasini moliyaviy smetalar yordamida boshqarishdir. Moliyaviy smetalar g'arb davlatlarida korxonaning barcha faoliyat turlarini moliyaviy rejalashtirish va nazorat qilishning keng tarqalgan vositalaridandir. Moliyaviy smeta korxonaning ma'lum kelgusi davrdagi resurs imkoniyatlari va bajarilishi lozim bo'lgan operatsiyalarini qiyoslovchi moliyaviy tushunchalar orqali yoritilgan to'liq rejasidir.

Moliyani boshqarish nazariyotchilari ta'kidlashlaricha, yuqorida keltirilgan konsepsiyalar taraqqiyoti va sintezi moliyaviy menejmentning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida ajralib chiqishiga imkon beradi. Kichik biznes korxonalari iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi zamon holati moliyani boshqarishning turli yo'nalishlarini qamrab oluvchi integratsion konsepsiyalarni ko'rsatmoqda.

Moliyaviy menejmentning mana shunday integratsion konsepsiyasiga misol tariqasida "Firma qadriyatini maksimallashtirish nazariyasi (Wealth Maximization Teogu)"ni keltirish mumkin. Mazkur nazariya asoschilari shundan kelib chiqadilarki, moliyaviy xususiyatdagi qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligining umumlashgan mezon sifatida quyidagi shartlarga javob bera oladigan ko'rsatkichdan foydalanish lozim: korxonada egalari daromadlarini prognozlashtirishga asoslanishi; har tomonlama asoslanib berilgan, aniq va tushunarli bo'lishi; boshqaruv qarorlarini qabul qilishning barcha jabhalari uchun qo'llay olinishi.

Mazkur konsepsiya doirasida korxonada o'z kapitali, aniqrog'i — korxonada aksiyalari bozor bahosini oshirish mezonlariga ko'proq mos keluvchi qarorlar qabul qilinadi. Moliyani boshqarishning ushbu maqsadiga erishishi uchun u quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha olib borilishi kerak: investitsion siyosat; moliyalash manbalarini boshqarish; dividend siyosati.

Shuni ta'kidlash joizki, korxonada qiymati (qadriyati)ni maksimallashtirish nazariyasi asosan korporativ boshqaruvda qo'llanilmoqda. Ushbu konsepsiyani kichik korxonalar tomonidan qo'llashda asosiy maqsadni saqlagan holda moliyani boshqarishning yo'nalishlarini ko'proq quyidagilarga qaratish lozim: moliyalashtirishning manbalarini boshqarish; xarajatlarni mukammallashtirish; korxonada moliyaviy holatining optimal darajasi monitoringi va uni ushlab turish.

Korxonalarda moliyaviy menejment asoslari amaldagi moliya mexanizmining mantiqiga va o'ziga xos xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan kichik biznes moliya mexanizmi taraqqiyotining hozirgi holatini tahlil etish va uni takomillashtirish istiqbollari ko'rsatib berish o'ta dolzarb ahamiyatga ega.

Moliyaviy smeta shu ma'noda to'liqdirki, u kichik jamiyat faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun moliyaviy smeta korxonada bo'linmalari yoki ayrim sohalarining emas, balki butun korxonaning rejasidir. Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, amaliyotda bo'lim moliyaviy smetasi, reklama uchun moliyaviy smeta kabi tushunchalar ham uchraydi. Moliyaviy menejment korxonada moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanishi bilan bog'liq tamoyil va metodlar tayyorlashda va boshqaruv qarorlarini amalga oshirishda hamda uning pul mablag'lari aylanmasini tashkillashtirishda o'zini namoyon etadi. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmenti tashkil etish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo'lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta'minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish,



korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish asosiy maqsadlardan biri sanaladi.

Xususan, xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va shu asosda zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, ishlab chiqarish, investitsiya, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, chet el kapitali ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, eski bo'linmalar va lavozimlarni tugatish, zamonaviy xalqaro standartlar va bozor iqtisodiyoti talablariga mos yangi bo'linma va lavozimlarni joriy etishni inobatga olgan holda, aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy menejmenti tuzilmasini tubdan qayta tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022 yil yakuni bo'yicha e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab — quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 119,2 trln.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 3,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 32,5 % ni tashkil etgan.

## 2-jadval

**“Toshkent yog'-moy kombinati” AJ joriy aktivlarini moliyalashtirish manbalarining tarkibi va dinamikasi (foizda)**

Moliyalashtirish manbalari:	Yillar					2022 yilda 2018 yilga nisbatan o'zgarishi, f.p.
	2018	2019	2020	2021	2022	
O'z mablag'lari	60,3	68,1	71,7	77,1	85,3	25,0
Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlari	39,7	28,6	26,6	19,3	13,4	- 26,3
Qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'lari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	-
Boshqa manbalar	0,0	3,3	1,7	3,6	1,3	1,3
Joriy aktivlarni moliyalashtirish manbalari – jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X

**Manba:** muallif tomonidan “Toshkent yog'-moy kominati” AJning 2018-2022 yillar yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari asosida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, “TYOMK” AJ joriy aktivlarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida eng yuqori salmoqni Kombinatning o'z mablag'lari egallaydi. Bu esa, Kombinatning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining past ekanligi va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish yo'li bilan pul mablag'larini jalb qilish amaliyotining mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, 2-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, Kombinatning o'z mablag'larini joriy aktivlarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmidagi salmog'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 25,0 foizli punktga oshgan. Bu esa, mazkur davrda tijorat banklari kreditlarining aylanma mablag'larni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmidagi salmog'ini yuqori darajada pasayishiga olib kelgan.

3-jadval

**“Toshkent yog‘-moy kombinati” AJ ning 2015-2019 yillarda asosiy mahsulot ishlab chiqarish va moliyaviy ko‘rsatkichlari**

Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari:	Yillar					2022 yilda 2018 yilga nisbatan o‘sishi, %
	2018	2019	2020	2021	2022	
Jami ishlab chiqarish hajmi: (mln.so‘m)	87315,0	95315,0	91678,9	92104,4	146952,8	168,3
Tozalangan o‘simlik yog‘i: (tn)	9,5	9,8	9,0	8,8	6,4	67,3
Shu jumladan tovar: (mln.so‘m)	3370,2	443,0	443,0	-	6,4	0,18
Margarin mahsulotlari (mln.so‘m)	40007,3	56069,6	44876,7	42695,0	50679,4	126,7
Barcha turdagi salomaslar (mln.so‘m)	20093,4	13576,0	10222,9	13756,9	5,0	0,02
Qadoqlangan yog‘ (mln.so‘m)	10664,5	7426,9	9120,2	9907,4	19169,9	179,8
Shrot (mln.so‘m)	10092,2	11989,1	19550,7	18591,7	17806,6	176,4
Sheluxa (mln.so‘m)	2706,1	1589,9	7100,6	6544,2	5198,8	192,1
Ishlab chiqarish tannarxi	74609,8	6847,0	63654,8	-	104953,6	140,7
Sof foyda	735,1	6291,2	6605,8	-	3067,0	417,2
Ishchilarning o‘rtacha oylik ish haqi	660,0	950,0	934,0	1233,9	-	2018 yilda 2015 yilga nisbat 186,9

*Manba:* muallif tomonidan “Toshkent yog‘-moy kominati” AJning 2018-2022 yillar yakuni bo‘yicha e‘lon qilingan hisobotlari asosida ishlab chiqilgan.

3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, “TYOMK” AJ da asosiy mahsulot jami ishlab chiqarish hajmi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 168,3 foizga oshgan, tozalangan o‘simlik yog‘i 32,7 foizga qisqargan, ishlab chiqarish tannarxi esa, 40,6 foizga oshgan, sof foyda esa 4,2 barobarga oshgan hamda, ishchilarning o‘rtacha oylik ish haqi 86,9 foizga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlarini umum qabul qilingan xalqaro amaliyot standartlari va talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qilish maqsadag muvofiq.

### **Xulosa va takliflar.**

Aksiyadorlik jamiyatlarining joriy likvidlilik darajasini oshirish uchun, birinchidan, joriy aktivlarning o‘shir sur‘ati bilan joriy majburiyatlarining o‘shir sur‘ati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash lozim; ikkinchidan, yuqori likvidli qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlarga qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirish yo‘li bilan joriy aktivlar hajmini oshirish kerak; uchinchidan, kreditor qarzdorlikning aylanish tezligini oshirish yo‘li bilan kreditor qarzlarning joriy majburiyatlar hajmidagi salmog‘ini pasaytirish lozim.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy menejmentni tashkil etish mexanizmining tahlili shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashning muhim omillaridan biri moliyaviy barqarorlik monitoringini samarali tashkil etish hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik monitoringi moliyaviy menejmentning yangi shakllanayotgan funksiyalaridan desak ham bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida korxonada moliyaviy barqarorlik monitoringini amalga oshirish ketma-ketligi ishlab chiqildi. Moliyaviy barqarorlik monitoringining samarali tashkil etilishi korxonada moliyaviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyasini kuzatish imkoniyatini yaratish bilan birga, strategik qarorlarni qabul qilishda ma‘lumotlar ishonchliligi, tizimlilik va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta‘minlash; boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida asoslash uchun tezkor tahlilni amalga oshirish; moliyaviy rejalashtirishga doir sifatli ma‘lumotlarni olish; bankrotlik

holatlarini oldindan aniqlash hamda korxonada moliyaviy holatini mustahkamlashga qaratilgan moliyaviy sog'lomlashtirishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minotini mustahkamlash maqsadida korporativ obligatsiyalarni muomalaga kiritish tartibini xorijiy ilg'or tajribalardan kelib chiqqan holda takomillashtirish lozim. Xususan, mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan o'z kapitali miqdorida korporativ obligatsiyalarni emissiya qilish tartibini quyidagicha o'zgartirish maqsadga muvofiq: xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuqori darajada baholangan aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kapitali miqdoriga nisbatan cheklovni bekor qilish; aksiyadorlik jamiyatlari sof aktivlari hajmining 50 foizidan oshmagan holda emissiya qilish huquqini kiritish. Bu holat aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan qo'shimcha moliyaviy ta'minot manbalarini oshirish hisobidan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini kengaytirishga imkon beradi.

#### ***Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:***

*Druker P. (2019) Biznes i innovatsii.-M.:Academia,-221 c.*

*Emerson G. (2019) Dvenadsat principov proizvoditelnosti.-M.:URSS, 224s.*

*Madsen J.B. (2020) "Semi-Endogenous versus Schumpeterian Growth Models: Testing the Knowledge Production Function using International Data".Journal of Economic Growth, forthcoming.*

*Porter M. (2010) Mejdunarodnaya konkurensiya.-M.:Vilyams, 592 s.*

*Saidov D.A. (2008) Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari. Iq. f.n. ilm. darajasini olish uchun diss. – Toshkent: BMA,– 133 b.*